

HAMKORLIK MEMORANDUMI

16 01 2023y.

Toshkent shahri

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti (keyingi o'rinlarda O'zDK huzuridagi MESI deb yuritiladi) nomidan rektor A.Mansurov, bir tomondan (keying o'rinlarda 1-tomon deb yuritiladi) va ikkinchi tomondan Toshkent viloyati Chirchiq shahar 3-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi direktori A.Ulug'bekov (keying o'rinlarda 2-tomon deb yuritiladi) o'z huquq va vakolatlari doirasida o'zaro hamkorlik bo'yicha birgalikdagi va muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida kelishib oldilar va ushbu Memorandumni quyidagilar bo'yicha tuzdilar:

1. Hamkorlik maqsadi

1.1. O'zaro hamkorlik to'g'risidagi ushbu Memorandumning maqsadi qo'shma ijodiy, ta'lim va madaniy tadbirlarni o'tkazishdan iborat.

1.2. Hamkorlik tenglik va o'zaro kelishuv asosida amalga oshiriladi.

2. Tomonlarning hamkorlik yo'nalishlari va shakllari

2.1. Ta'lim muassasalari o'qituvchilarining tajriba almashish va kasbiy mahoratini oshirish maqsadida o'qituvchilar uchun qo'shma mahorat darslarini tashkil etish va o'tkazish;

2.2. Toshkent viloyati Chirchiq shahar 3-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi (keying o'rinlarda 3-sonli BMSM deb yuritiladi) o'qituvchilariga o'quvchilarni turli tanlovlarga tayyorlashda uslubiy yordam ko'rsatish, zarur hollarda musiqiy notalar bilan ta'minlash;

2.3. 3-sonli BMSM negizida O'zDK huzuridagi MESI talabalarining pedagogik amaliyotini o'tkazilishini ta'minlash;

2.4. 3-sonli BMSMda O'zDK huzuridagi MESIning etakchi professor-o'qituvchilarining mahorat darslarini, taniqli san'at va ta'lim arboblari, O'zbekiston bastakorlari va dirijyorlari bilan ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish va o'tkazish;

2.5. Bitiruvchi yosh mutaxassislariga 3-sonli BMSM da ishlashi uchun yo'llanma berish.

2.6. O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI bitiruvchilarini 3-sonli BMSMga ishga qabul qilish majburiyatini yuklash.

2.7. O'quvchilar almashinuvi hamda o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha Respublika va xalqaro grantlarda ishtirok etish;

2.8. Hamkorlikdagi faoliyatni ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib borish.

3. Tomonlarning o'zaro ta'siri

2.9. Ushbu Memorandum doirasida tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktabr O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutini tashkil etish to'g'risida PQ-5261-son qaroriga va san'at va madaniyat sohasidagi tenglik va ochiqlik tamoyillariga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

3.0. Tomonlar vakolatli vakillari orqali ushbu Memorandum bandlarini bajarish bo'yicha hamda yuzaga keladigan muammolarni ko'rib chiqish va qo'shma tadbirlarni o'tkazish yuzasidan o'zaro muloqot qiladilar.

3.1. Ushbu memorandumning imzolanishi:

- Tomonlarga bir – biriga nisbatan hech qanday moliyaviy va boshqa majburiyatlar yuklatilmaydi, faqat ushbu Memorandum va tomonlarning yozma kelishuvlarida nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno;
- Kasbiy va xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda tomonlarning erkinligiga cheklovlar qo'yilmaydi;
- Tomonlarning har qanday faoliyat turlarini, jumladan, o'zaro hamkorlik doirasida tomonlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni mustaqil ravishda bajarishiga cheklovlar qo'yilmaydi;
- tomonlarning boshqa hamkorlik va uyushmalarda ishtirok etishiga cheklovlar qo'yilmaydi.

4. Yakuniy qoidalar

3.2. Zarur hollarda, tomonlar ushbu Memorandumda ko'zda tutilgan tomonlar o'rtasidagi hamkorlikning ayrim yo'nalishlarini amalda bajarish uchun zarur bo'lgan qo'shma harakatlar rejalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

3.3. Ushbu Memorandum qoidalaridan kelib chiqadigan har qanday bildirishnomalar (xabarlar, ma'lumotlar va h.k.) elektron pochta orqali yoki zarur hollarda, boshqa yo'l bilan (pochta, faks, va boshqalar) har bir Tomon tarafidan tayinlangan shaxslarga yuboriladi.

3.4. Tomonlar o'rtasidagi tortishuvlar va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokaralar yoki maslahatlashuvlar orqali hal qilinadi. Ushbu Memorandum bo'yicha harakatlarni amalga oshirish uchun tuzilgan shartnomalar (ruxsatnomalar) ni bajarish davomida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilish tartibi ko'rsatilgan shartnomalar (bitimlar) bilan belgilanadi.

3.5. Tomonlar iloji boricha samarali harakat qiladi va bir-birining manfaatlarini hisobga olgan holda, ushbu Memorandumda ko'zda tutilgan qoidalar va tadbirlarni amalga oshiradi.

3.6. Har bir tomon, boshqa tomon bilan kelishilgan holda, uchinchi tomonni ushbu Memorandum qoidalarini bajarishga jalb qilishi mumkin.



3.7. Ushbu Memorandumga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar tomonlarning qarori bilan yozma ravishda kiritilishi mumkin va bu Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadi.

3.8. Ushbu Memorandum 2028 yil 01 gacha bo'lgan muddatga tuziladi. Agar ushbu Memorandum, Tomonlardan biri ushbu badda nazarda tutilgan muddatlar tugagunga qadar yoki tegishli yangilanish muddati tugashidan oldin uning bekor qilinganligini e'lon qilmasa, Memorandumning amal qilish muddati avtomatik ravishda bir yilga uzaytiriladi.

3.9. O'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandumga o'zgartirishlar har qanday vaqtda tomonlarning o'zaro yozma kelishuvi bilan amalga oshirilishi mumkin.

4.0. Ushbu Memorandum har bir tomon uchun bir nusxadan, 2 (ikki) nusxada o'zbek tilida tuzilgan.

5. Tomonlarning imzo va rekvizitlari:

1- tomon	2- tomon
O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti	Toshkent viloyati Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi, Chirchiq shahar 3-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi
Toshkent shahar Shayxantohur tumani, B.Zokirov ko'chasi, 1-uy	Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, 1 kichik tuman 81-uy
Telefon: (71) 244-53-20	Telefon: (70) 714-17-97
O'zDK huzuridagi MESI rektori  A. Mansurov	Direktor  A. Ulug'bekov